

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YO‘LDOSHEVA IRODA IBODULLA QIZI

**RAQAMLI BANK XIZMATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi
bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Saidov D.A.

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. RAQAMLI BANK XIZMATLARI TARKIBIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI.....	11
1.1. Raqamli bank xizmatlarining mohiyati va tarkibiy qismlari.....	11
1.2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	27
1.3. Raqamli bank xizmatlarining rivojlangan davlatlar tajribasi.....	37
I bob bo'yicha xulosa.....	45
II BOB. RAQAMLI BANK XIZMATLARINING AMALIYOTDAGI HOLATI VA RIVOJLANISHI.....	43
2.1. O'zbekiston Respublikasi raqamli banklar resurs bazasi amaldagi holati va tahlili.....	47
2.2. O'zbekiston Respublikasi raqamli bank xizmatlari bozorini joriy holati va tahlili.....	64
2.3. Raqamli bank xizmatlariga ta'sir etuvchi omillar.....	83
II bob bo'yicha xulosa.....	93
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	95
3.1. Raqamli bank xizmatlar bozorini rivojlantirish bilan bog'liq muommalar.....	95
3.2. Raqamli bank xizmatlarining samaradorligini oshirish va rivojlantirish imkoniyatlari.....	109
III bob bo'yicha xulosa.....	118
XULOSA.....	120
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida tijorat banklarining xizmatlari va operatsiyalarini an'anaviy bank xizmatlaridan raqamli texnologiyaga asoslangan bank xizmatlariga o'tkazish banklar faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro amaliyotda "online banking" ga o'tish COVID-19 pandemiyasidan oldin boshlangan bo'lishiga qaramasdan aynan pandemiya jarayonida raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishiga sezilarli darajada ta'sir qildi. Ma'lumotlarga ko'ra 2024-yil II choragida "Amerika Qo'shma Shtatlaridagi raqamli banklar 244,10 milliard AQSh dollari foyda¹ga erishgan bo'lsa, Germaniya 64,11 milliard AQSh dollari foyda² bilan chorakni yakunlaganligini ko'rishimiz mumkin". Raqamli bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda tezkorligi va natijadorligini oshirish ularning investitsion jozibadorligini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar banklari va xalqaro tashkilotlar tomonidan raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, amaldagi holati va bank xizmatlarini samaradorligini rivojlantirish bilan bog'liq izlanishlar olib borilmoqda. Bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish, moliyaviy mahsulotlar sifatini oshirish, past foiz stavkalarida kreditlar ajratish orqali mijozlar uchun qulaylik yaratish va shu bilan birga, banklarning raqobatbardoshligini yuqori sur'atlarda rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda raqamli xizmatlarning rentabelligini ta'minlash ham strategik vazifalardan biridir. Global miqyosda raqamli bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Shu boisdan, ilg'or raqamli texnologiyalar va innovatsion instrumentlardan foydalanish orqali bank mahsulotlarini modifikatsiya qilish, xizmatlarni rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantirish hamda bank ekotizimlarini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilg'or xorijiy

¹ www.bcg.com The Boston Consulting Group. Global Retail Banking 2024

² www.pwc.com/banking Retail Banking 2024. Evolution or Revolution?

mamlakatlar tajribasi hamda bank tizimi faoliyatining strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda raqamli bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish, jamiyatda bo'sh turgan pul mablag'larini qulay shartlarda masofadan turib jalb qilish, kredit resurslarini samarali joylashtirish, boshqarish va taqsimlash singari muammolarning ilmiy asoslari tadqiq etilmoqda.

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Bank tizimiga zamonaviy servis echimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda"³. Bank tizimi faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, xususan, masofaviy bank xizmatlari va kontaktsiz to'lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish banklarning raqamli xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv nafaqat mijozlarga qulaylik yaratadi, balki bank faoliyatining samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi. Iqtisodiy taraqqiyotning raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan innovatsion yo'nalishda amalga oshirilishi barcha tarmoqlarda bosqichma-bosqich raqamli yechimlarni joriy etish jarayonini jadallashtirmoqda. Mazkur jarayonning yaqin istiqbolda yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishishi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"⁴gi farmonida **raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish hamda** iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini

³ 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

2026-yil

yakuniga

qadar

70 foizgacha oshirish kabi vazifalarni belgilangandi, 2018-yil 21-noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵gi, 2022-yil 10-iyundagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁶gi, 2023-yil 27-apreldagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁷gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”⁸gi farmoni ushbu sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot ishida mavzu yuzasidan qator ilmiy adabiyotlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganib chiqildi.

Raqamli bank xizmatlari, xususan, masofaviy xizmatlar hamda ularning resurs bazasi masalalari ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Y.Korchagin, I.Lavrushin, G.Beloglazova, A.Tavasiyeva, S.V.Galitskaya, A.Ivanov, P.Rouz, J.Sinki, V.Xabarov, N.Popova, Sh.Zokirov,

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-apreldagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”

Y.Vinokurova, N.Keshenkova, A.Goncharuk⁹ kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida bu yo‘nalishning turli jihatlariga e‘tibor qaratganlar.

Shuningdek, sohaning ilmiy-amaliy muammolari bo‘yicha bir qator mahalliy olimlar — Sh.Abdullayeva, T.Qoraliyev, A.Omonov, O.Aliqoriyev, D.Raxmonov, E.Xoshimov, Z.Mamadiyarov, I.Kuliyev, Z.Xudoyberganova, K.Navro‘zova¹⁰lar tomonidan ham turli ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda bank faoliyatiga oid umumiy masalalar keng yoritilgan bo‘lsa-da, aynan raqamli bank xizmatlari va masofaviy moliyaviy operatsiyalardan foydalanish masalalari yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Xususan, jahon amaliyotida mazkur yo‘nalish jadal rivojlanayotganiga qaramasdan, respublikamiz sharoitida raqamli bank xizmatlari faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimli ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan.

⁹ Y.A.Korchagin “Pul , kredit,” “Feniks” 2006-y 3 12 s, I.O.Lavrushin «Банковское дело розничный бизнес» М: “Knorus” 2010-y 762 s , G.N.Beloglazovoy, L.P.Kroshveskoj «Банковское дело» Uchebnik dlya vuzov 2-ye izdanie P: 2008-y 400 s, A. M. Tavasieva «Дополнительные операции для клиентов» Moskva “F i S” 2005-y.41b s, S.V.Galitskaya “Pul , kredit, banki”. Polniy kurs. Moskva izd. “Eksmo” 2008-y 336 s,A.N.Ivanov «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт» Moskva “F.i.S” 2002-y 176 s, Piter S Rouz «Банковский менеджмент» М: Delo 1997-y 762 s, Djozef Sinki «Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг» М: Alpina Publisher 2019y 1018 s, VAL. Xabarov, N.Y.Popova «Банковский маркетинг»U1-U1oskovskaya finansovo-promyshlennaya akademiya 2005y 15-23s. VAL. Xabarov, N.Y.Popova «Bankovskiy marketing»U1-U1oskovskaya finansovo-promyshlennaya akademiya 2005y 15-23s, Sh.Z. Zakirov. Razvitie rynka bankovskix roznichnyx uslug: dis. kand. ekon. nauk: 08.00.10 / Sam. gos. ekonom, un-t - Samara, 2008. - 185 s., Ye.A.Vinokurova Metodicheskoe obespechenie analiza krizisnyx sostoyaniy roznichnogo biznesa kommercheskogo banka: avtoreferat N.V. Keshenkova Razvitie roznichnyx bankovskix uslug va usloviyax formirovaniya innovatsionnoy ekonomiki: avtoreferat dis. kand. ekon. nauk: 08.00.10 Moe. gos.un-t ekonomika, statistika va informatika - Moskva, 2013. - 27 s, A.C. Goncharuk Institutsionnye aspekty razvitiya segmenta roznichnyx bankovskix uslug: dis. kand. ekon. nauk: 08.00.10 / Sev.-Oset. gos. un-t im; K.L. Xegaurova - Shaxti, 2012. - 183 s, Sh.Z.Abdullayeva. “Bank ishi” Darslik. “IKTISOD-MOLIYA” 2017-йил 535-540-бетлар, А.А Омонов., М. Т. Қоралиев Банкларда бухгалтерия кисоби Т. 2014 й 118 б, 122 б, А.А Омонов., М. Т. Қоралиев Банкларда бухгалтерия кисоби Т. 2014 й 118 б, 122 б, Ф.И.Мирзаев Банклараро рақобат моҳияти, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари Монография Т: «МОЛИЯ», 2008 й.68-87, О. Алиқориев “Тижорат банкларида молиявий хизмат турларини ривожлантириш йўналишлари” мавзусидаги диссертация. Тошкент 2011 й. 55-56 б, Д.А.- Рахмонов, Э.А.Хошимов, Э.Д.Алимардонов, Г.А.Бекмуродова. 3. Т. Мамадияров Молия. Гончарук Институционные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им; К.Л. Хегаурова - Шахти, 2012. - 183 с.

¹⁰ К.Н.Наврозова, О.А. Ортиков Нам пулсиз ҳисоб китоблар ва тулов тизими Т: «Чулпон», 2014 й, Ш.З.Абдуллаева. “Банк иши” Дарслик. “ИҚТИСОД-МОЛИЯ” 2017-йил 535-540-бетлар. А.А Омонов., М. Т. Қоралиев Банкларда бухгалтерия кисоби Т. 2014 й 118 б, 122 б. А.А Омонов., М. Т. Қоралиев Банкларда бухгалтерия кисоби Т. 2014 й 118 б, 122 б. Ф.И.Мирзаев Банклараро рақобат:моҳияти, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари Монография Т: «МОЛЛЯ», 2008 й.68-87. Д.А.- Рахмонов, Э.А.Хошимов, Э.Д*Алимардонов, Г.А.Бекмуродова. 3. Т. Мамадияров Молиявий глобаллашув шароитида масофавий банк хизматларининг ривожланиши: назария ва амалиёт. Монография. Т.: «ИҚТИСОДИЁТ», 2018 й., 49-60 б. И.Куллийев Банк менежменти ва маркетинги ўқув қўлланма Т.: 2017 й. 100-117б. К.Н.Наврозова, О.А. Ортиков Нам пулсиз ҳисоб китоблар ва тулов тизими Т: «Чулпон», 2014 й.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tijorat banklar tomonidan taqdim etilayotgan raqamli bank xizmatlarining hozirgi holatini tahlil qilish va uni takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- raqamli bank xizmatlarining mazmun-mohiyatini yoritish, ularning tarkibiy elementlarini tahlil qilish va mualliflik yondashuvlarini shakllantirish;

- tijorat banklari tomonidan raqamli xizmatlarni ko'rsatish jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslarini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

- xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish amaliyotini tahlil qilish;

- raqamli bank tizimining resurs bazasi hamda bank xizmatlari bozorining mavjud holatini tadqiq etish;

- mazkur xizmatlar bozorini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish;

- raqamli bank xizmatlarining samaradorligini oshirish hamda ularni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining raqamli bank xizmatlari ko'rsatish amaliyoti tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Tijorat banklari tomonidan raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada moliyaviy tahlilning guruhlash, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, baholash va emperik kuzatish tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning individuallashtirish profilini shakllantirish orqali bank kreditlar ajratish jarayonini soddalashtirish asoslab berilgan;

tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishda mijozlarning gamifikatsiya – motivatsion reyting tizimini yaratish orqali bank depozitlar salmog‘ini kamida 15 foizga oshirish ilmiy asoslangan;

raqamli bank xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida bankning zamonaviy bank texnologiyalariga operatsion xarajatlarni har yili kamida 5 foizga oshirib borish orqali optimallashtirish asoslangan;

mijozlarning xohish-istaklari va xatti-harakatlarini real vaqt rejimida baholab ularga raqamli bank xizmatlari ko‘rsatuvchi va ma’lumotlar taqdim etuvchi Online-Location-Services (OLS) xizmatini joriy etish ilmiy asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari:

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar uchun individuallashtirish profilni shakllantirish, kredit ajratishni soddalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash taklifi amaliyotda foydalanilgan;

banklararo raqobat sharoitida, raqamli banklarning kadrlar siyosatini samarali boshqarish, xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini ishdan ajralmagan holda doimiy ravishda oshirib borish taklif etilgan;

moliyaviy xizmatlar sohasida gamifikatsiya tamoyillaridan foydalanish, ya’ni o‘yin elementlari va rag‘batlantirish mexanizmlarini bank amaliyotiga tatbiq etish, mijozlar faoliyatini faollashtirish va ularning sodiqligini oshirishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

bank xodimlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakasini oshirish va raqamli xizmatlar sifatini yuqori darajaga ko‘tarish orqali operatsion xarajatlarni

kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi amaliy mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning raqamli bank xizmatlari, ularni takomillashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini o'rganish, sohadagi xorijiy davlatlar, xorijiy kompaniyalar tadqiqotlarini o'rganish va umumlashtirish, ekspert bahoalsh natijalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, raqamli banklar ma'lumotlari shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar raqamli banklarning resurs bazasini oshirish va amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy apparatni boyitishi bilan belgilanadi. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishda ularning usullari va modellarini ishlab chiqishda, shuningdek bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Raqamli bank xizmatlarini yaratish va rivojlantirish, bank xizmatlarini bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish orqali innovatsion bank xizmatlarini tadbiq etish orqali belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning individuallashtirish profilini shakllantirish orqali bank kreditlar ajratish jarayonini soddalashtirish taklifi ATB "Aloqabank" amaliyotga joriy etilishi natijasida (2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma'lumotnoma) berilgan umumiy kreditlar hajmi 2024-yil yanvarga nisbatan 25,7 foizga oshib, 2025-yil yanvarda 12 944 mlrd.so'm kredit berilgan;

tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishda mijozlarning gamifikatsiya – motivatsion reyting tizimini yaratish orqali bank depozitlar salmog'ini kamida 15 foizga oshirish taklifi ATB "Aloqabank" amaliyotga joriy etilishi natijasida (2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma'lumotnoma) 2025-

yil yanvarda, 2024-yilning shu davriga nisbatan taklifi qilingan. jami depozitlarning hajmi 49,7 foizga oshgani holda, mos ravishda 13 815 mlrd so‘m depozit qabul qilingan;

raqamli bank xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida bankning zamonaviy bank texnologiyalariga operatsion xarajatlarni har yili kamida 5 foizga oshirib borish orqali optimallashtirish taklifi ATB “Aloqabank” amaliyotga joriy etilishi natijasida (2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma’lumotnoma) bankning operatsion xarajatlari 2025-yil yanvarda 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,8 foizga qisqarib 119 mlrd. so‘mni tashkil etadi;

mijozlarning xohish-istaklari va xatti-harakatlarini real vaqt rejimida baholab ularga raqamli bank xizmatlari ko‘rsatuvchi va ma’lumotlar taqdim etuvchi Online-Location-Services (OLS) xizmatini joriy etish taklif ATB “Aloqabank” amaliyotga joriy etilishi natijasida (2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma’lumotnoma) bankning raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2025-yil yanvarda 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga ortib 1 749 838 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 1 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish. 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan holda 130 betdan iborat.